

“Guyfertonis” Mchj Iqtisodiy Samaradorligini Indeks Usuli Yordamida Baholash Va Tahlil Qilish

Urokov Firdavs Ortikniyozovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası assistenti

Mambetova Raushana Zayniddinovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Menejment" yo'nalishi talabasi

Kirish.

Narx — bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biri. U o'zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyot turli tarmoq va sohalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari bo'yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi¹.

Bu usul statistika nazariyasi fanida batafsil yoritilgan. Tahlil fani buxgalteriya hisobi va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini oldingi boblarda ta'kidlagan edik. Shuningdek tahlil fani statistika fanining birqancha usullarida foydalanadi. Shulardan biri indeks usulidir. Bu usul juda ko'p qirrali mavzu. Biz esa ushbu bobda shu usulning omilli tahlilida qo'llanilishini ko'ramiz xolos.

Avvalambor bu usulni qayerlarda va qay holatda va nimalar uchun ishlatilishi haqida yozib o'tadigan bo'lsak. Bu usulda natijaga Tovar hajmi (narxi, miqdori) ta'sir qilganda qo'llaniladi.

Umumiy formulasi:

$$T=p*q$$

Bu yerda:

T = tovar aylanmasi

p=tovar narxi

q= tovarlar fizik miqdori/hajmi

Yuqoridagi formulalardan foydalangan holda, bizda quyidagi formulalar kelib chiqadi:

$$1) \Delta T_p = p_1 * q_0 - p_0 * q_0$$

$$2) \Delta T_q = p_1 * q_1 - p_1 * q_0$$

$$3) \Delta T = \Delta T_p \pm \Delta T_q$$

$$4) \Delta T = T_1 - T_0$$

“Guyfertonis” MCHJ tashkiloti kompyuter savdosini bilan faoliyat yuritadi va uning korxonasiidagi mahsulotlarning Tovar aylanmasini 2 oy sifatida taqqoslab indeks usulida hisoblab

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Narx>

ko'ramiz. 3 turdagi maxsulotlar hisoboti: «Asus» kompyuteri, «Mackbook» kompyuteri va «HP» kompyuterlari

Ushbu kompyuter do'koni iyun oyida «Asus» kompyuter mahsulotlarini 1 donasini 4 000 000 so'mdan sotdi va sotilgan maxsulot miqdori ushbu oyda 12 donani tashkil etdi. Va bu maxsulot iyul oyiga kelib 1 donasi 3 800 000 so'mdan sotildi va maxsulot miqdori 20 tani tashkil etdi. «Mackbook» kompyuteri maxsuloti iyun oyida 6 500 000 so'mdan sotildi va miqdori 10 tani tashkil etdi va iyul oyiga kelib bu miqdor 15 taga oshdi va 7 000 000 dan sotilgani ma'lum bo'ldi. «HP» computer maxsuloti esa iyun oyida 5 000 000 dan sotildi va miqdori 10 ta, iyul oyida esa bu ko'rsatkich 10 ta va narxi 4 800 000 dan sotilgan.

Endi umumiy hisobotini, ya'ni Tovar aylanmasiga maxsulotning miqdori va narxi qanday ta'sir o'tqazayotganini jadval sifatida ko'rib chiqamiz.

Mahsulot nomi	Iyun		Iyul	
	Narx	Miqdor	Narx	Miqdor
«Asus» kompyuteri	4 000 000	12	3 800 000	20
«Mackbook» kompyuteri	6 500 000	10	7 000 000	15
«HP» kompyuteri	5 000 000	10	4 800 000	10

$$T_o = (p \cdot q) + (p \cdot q) + (p \cdot q) = (4\,000 \cdot 12) + (6\,500 \cdot 10) + (5\,000 \cdot 10) = 48\,000 + 65\,000 + 50\,000 = 163\,000$$

$$T_1 = (p \cdot q) + (p \cdot q) + (p \cdot q) = (3\,800 \cdot 20) + (7\,000 \cdot 15) + (4\,800 \cdot 10) = 76\,000 + 105\,000 + 48\,000 = 229\,000$$

$$\Delta T = 229\,000 - 163\,000 = 66\,000$$

$$\Delta T_p = ((p_1 \cdot q_0) + (p_1 \cdot q_0) + (p_1 \cdot q_0) - (p_0 \cdot q_0)) = 45\,600 + 70\,000 + 48\,000 = 163\,600 - 163\,000 = 600$$

$$\Delta T_q = 229\,000 - 163\,600 = 65\,400$$

Tekshirish:

$$\Delta T = \Delta T_p \pm \Delta T_q = 65\,400 + 600 = 66\,000$$

Tahlil natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi:

O'tgan oyga nisbatan "Guyfertonis" MCHJ kompyuter savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotida savdo hajmi 66 million so'mga oshgan. Bunga esa omillar ta'siri quyidagicha:

- 1) «Asus» kompyuteri narxi o'tgan oyga nisbatan 200 ming so'mga tushishi, «Mackbook» kompyuterini narxi esa 500 ming so'mga oshishi va «HP» kompyuterini narxi 200 ming so'mga tushishi, umumiy Tovar aylanmasini 600 ming so'mga oshirgan.
- 2) «Asus» kompyuterini miqdori o'tgan oyga nisbatan 8 taga oshgani, «Mackbook» kompyueri 5 taga oshgani va «HP» kompyuterini o'zgartirgani esa, umumiy Tovar aylanmasini 65 million 400 mingga oshishiga sabab bo'lgan.
- 3) Yakunda ikkala Tovar aylanmasini 66 million so'mga oshirgan.

Xulosa.

Xulosa sifatida kelgusida kelgusida ushbu kompyuter savdosi bilan shug'ullanuvchi ushbu tashkilot Tovar aylanmasini yanada oshirishi uchun narx omili sifatida («Asus» va «HP» kompyuterlarini narxini) va miqdor omili sifatida («HP» kompyueri miqdorini) ustida ish olib borishi kerak !

Tahlilga oid juda ko'p adabiyotlarda moliyaviy hisobotlar tahlilining uslubiyati berilgan. Ammo ushbu adabiyotlarda asosiy e'tibor aktivlar tahliliga qaratilgan. Korxonaning iqtisodiy salohiyati deyarli o'rganilmasdan qolmoqda. Yuqorida korxonaning iqtisodiy salohiyati tarkibini qarab chiqdik. Qurilish bilan shug'ullanuvchi firmalarda ham xuddi shunday tarkibda bo'ladi. Bunga 3ta nabab bor. Birinchisi, iqtisodiy salohiyatning ahamiyatini ochib berish va uni tahlil qilish lozimligini asoslash. Ikkinchisi, iqtisodiy salohiyat tahlilning ketma-ketligini ko'rsatib berish

bo'lsa, uchinchidan, ushbu ko'rsatkichning omilini tahlilini amalga oshirish uchun tegishli ma'lumotlarni shakllantirish. Shu tufayli, hozirgi sharoitda asosiy e'tibor omilli tahlil uchun ma'lumotlarning yetarliligini ta'minlashga qaratilmog'i lozimdir.